

## ***DATURA STRAMONIUM VA PHYSALIS ANGULATA O‘SIMLIKLARIDAN OLINGAN VITASTEROIDLARNING ANTIEKSSUDATIV TA‘SIRI***

**M.U.Negmatova**

ToshDavTU Termiz filiali Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrası,  
assistent, Termiz shahri, O‘zbekiston

**F.R.Egamova**

Akademik S.Yu.Yunusov nomidagi O‘simliklar kimyosi instituti,  
PhD, katta ilmiy xodim, Toshkent shahri, O‘zbekiston

**Mavzuning dolzarbligi:** Organizmda vujudga keluvchi ko‘pgina kasalliklar yallig‘lanish bilan kechadi va bunday holatlarda ko‘pincha sintetik dori vositalaridan foydalaniladi. Lekin bunday vositalarning organizmga salbiy ta‘sirleri ko‘p bo‘lgani uchun hozirgi vaqtda tabiiy mahsulotlardan birmuncha samaraliroq. Shu maqsadda tabiiy o‘simliklardan olingan yallig‘lanishga qarshi hususiyatga ega biologik faol moddalarni o‘rganish va tibbiyotga keng tatbiq qilish yo‘lga qo‘yilmoqda..

**Tadqiqotning maqsadi:** *Datura stramonium* va *Physalis angulata* o‘simliklaridan ajratib olingan vitasteroidlarning organizmda kechuvchi yallig‘lanish jarayonlariga qarshi ta‘sirini aniqlashdan iborat.

**Natija:** Vitasteroidlarning organizmda kechuvchi yallig‘lanish jarayonlarini rivojlanishida ichki va teri qavatida qo‘llanilganda yallig‘lanishga qarshi faollikka va immunomodulyator ta‘sirga ega moddalar sifatida o‘rganish;

vitasteroidlar tomonidan yallig‘lanishga qarshi jarayonlarni faollashtirish mexanizmining asosiy jihatlarini o‘rganish, ushbu moddalar ta‘siri ostida a‘zo va to‘qimalarda metabolik jarayonlarning o‘zgarishi va beqarorlashtiruvchi omillar ta‘sirida tiklanish qobiliyati o‘rtasidagi munosabatni aniqlash;

vitasteroidlarning formalin, dekstrin va serotonin yordamida chaqirilgan tajribaviy hayvonlarda qo‘llanilganda yallig‘lanish jarayonlarini susaytiruvchi xususiyatga ega vositalar sifatida samaradorligini aniqlash;

vitasteroidlarning organizmda kechuvchi yallig‘lanish jarayonlariga ta‘sirini ushbu ta‘sirga ega diklofenak va prednizolon preparatlariga nisbatan o‘rganish;

tibbiyot amaliyotida dori yoki biologik faol qo‘shimchalar ko‘rinishida vitasteroidlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini umumiy farmakologik va toksikologik nuqtai nazardan asoslashdan iborat.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalariga ko‘ra vitasteroid moddasi yallig‘lanishga qarshi ta‘sirga ekanligi aniqlandi.